



MAROSIMLAR PAYDO BO'LISHIDA TABIAT BILAN BOG'LIQLIKNING FALSAFIY- TARIXIY TAHLILI

S.Kistaubayev

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada odamlarning tabiat bilan munosabati natijasida paydo bo'lgan marosimlar haqida so'z boradi. Marosim va an'analar chuqur tarixiy-falsafiy ildizga egadir.

Kalit so'zlar: Bid'at, qadriyat, motam, kichik (yarim) chilla, katta chilla, yigirma va qirq, neandertal, rodeziyalik odam, yetti og'ayni, yetti qarqochi, katta ayiq, kichik ayiq, muchal to'yi.

Аннотация: Данная статья посвящена ритуалам, возникшим в результате взаимоотношений людей с природой. Ритуалы и традиции имеют глубокие исторические и философские корни.

Ключевые слова: Ересь, значение, траур, малый (полу)холод, большой холод, двадцать и сорок, неандерталец, родезийский мужчина, семь братьев, семь разбойников, большой медведь, маленький медведь, мучаловая свадьба.

Annotation: This article is about the rituals that emerged as a result of people's relationship with nature. Rituals and traditions have deep historical and philosophical roots.

Key words: Heresy, value, mourning, small (half) chill, big chill, twenty and forty, Neanderthal, Rhodesian man, seven brothers, seven robbers, big bear, little bear, muchal wedding.

Bizning ko'hna tariximiz, ajdodlarimizning yashash tarzi, tabiat go'zalligi va ne'matlariga oshifalik azal-azaldan tabiatga kishilarimizda o'zgacha mehr hamda muhabbatni shakllanishiga va bu holat millatimiz mentaliteti yashash tarziga ko'chganligi ham ayni haqiqat. Ba'zida azaliy an'ana va marosimlarimizga nisbatan noo'rin ortiqcha chiqim va bid'atga asoslangan eskilik sarqiti degan ta'na dashnomlarni oddiy kishilar, ziyolilar orasida ham tez-tez eshitishimizga to'g'ri keladi. Muayyan ma'noda bu tanqidiy fikrlarda asos bo'lsa bordir. O'z o'rnida bu birlik tabiat, inson va jamiyat munosabatlaridagi o'zaro ta'sir va aloqadorlik asosida tarkib topadi. Ana shu ma'noda milliy-ma'naviy rivojlanishning ham tabiat, tabiiy muhit bilan uyg'unligini e'tirof etish zarur. Ammo insonga tabiiy-ijtimoiy qadriyat sifatida o'z ta'sirini o'tkazayotgan bu marosimlar tasodifiy paydo bo'lmaganligi bugungi kunda ilmiy va amaliy jihatdan asoslanmoqda. Insonning tug'ilishi va vafoti bilan bog'liq xalqimiz orasida davom etayotgan ko'pgina marosimlarimiz juda qadim zamonlarda ajdodlarimiz tomonidan hayotiy zaruriyat tarzida joriy etilgan va bular



ming yilliklar osha yashab, yo'lida uchragan turli to'siqlarni yengib kelmoqda. Turmush taqozo etgan narsalarni buyruq bilan man etib bo'lmaydi.

Masalan, tug'ilishga bog'liq marosimlar kishiga quvonch baxsh etsa, o'lim bilan bog'liq marosimlar, ma'rakalar yupanch beradi. Marhum va marhumani yodlab yetti, yigirma, qirq marosimlarini ixcham tarzda o'tkazish xalqimiz dahosi bilan yaralmish yaxshi odatlar bo'lib, boshiga og'ir musibat tushgan kishilardagi ayriliq dardini bir oz bo'lsa-da aritish, odam taftini odam oladi, qabilida ish tutish asosida motamda kishi xayolini musibat g'amidan chalg'itish va ovutish ko'nglini ko'tarish maqsadida amalga oshiriladigan ma'naviy qadriyatlar sirasiga kiradi. Garchi bu marosimlar diniy tusda bo'lsa-da uning tabiiy jarayon va qadriyatlar bilan mustahkam aloqadorlikda ekanligini anglab olish qiyin emas.

Xo'sh, nima uchun yetti, yigirma, qirq marosimlari qilinadi-yu, misol uchun o'n, o'ttiz, oltmish marosimlari qilinmaydi? Bu savolga adabiyotshunos olim A.Ibrohimov quyidagicha javob beradi.

“Alloh taolo olamni yetti kunda yaratmish, shundan kelib chiqib, shunga nisbat berilib yangi tug'ilgan chaqaloq yetti kunlik bo'lgach o'ng qulog'iga azon aytilib, chap qulog'iga takbir aytilib unga ism qo'yiladi. Odam bolasiga ism qo'yilgandan keyingina odam hisoblanadi, odamlar qatoriga qo'shiladi. Chaqaloq yigirma kunlik bo'lgach, uning kichik (yarim) chillasi chiqadi, u bir xavfdan omon-esson o'tib oldi, xudo hohlasa yashab ketadi, degan xulosaga kelinib xursand bo'linadi. U qirq kunlik bo'lgach, chillasi chiqqan hisoblanadi, buni xalqimiz katta chillasi chiqibdi, deydi, ayniqsa hayotiy tajribalari boy keksa kishilar chaqaloqning bobo va buvilari, amaki va ammalari, tog'a va xolalari ko'p xursand bo'ladilar”.

Xo'sh, bu jarayonni tabiiy qadriyatlar bilan qanday aloqasi bor. Avvalo dunyoga kelgan chaqaloq tabiiy muhitga moslashish bosqichlaridan o'tadi. Qolaversa bu marosimlarni tabiatdagi kun va oy hisoblari bilan bog'liq me'yorlari ham bor. Ma'lumki odam bolasi 280 kunda, xalq iborasi bilan aytganda, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqayu to'qqiz soniya (xalqimizda to'qqiz raqamini muqaddas deb hisoblanishi ana shundan kelib chiqqan)da tug'iladi. (Bir oyni 4 hafta – 28 kundan iborat deb biluvchilar uchun 10 oylik muddat 280 kundir) 280 ni 7 ga taqsimlasak 40 kelib chiqadi. Xalq bu raqamni tug'ilishga nisbat berganda chilla



deydi, o'limga nisbat berganda qirq deydi. Demak, bundan ko'rinadiki, yetti, kichik chilla, katta chilla, yigirma va qirq behuda paydo bo'lmagan. Ming-ming yillardan beri behuda yashab kelayotgani yo'q.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ularda zamon va makonga oid falsafiy tushunchalar, koinot va insoniyat o'rtasida, tabiat va odam hayoti o'rtasida bog'liqlik borligini tasdiqlovchi, qolaversa, tabiatni ham, odamzodni ham daqiq va haqiq qilib, tangri taolo yaratganini asosli tarzda isbotlab turuvchi narsalardir.⁵⁵ Marosimlardagi insonparvarlik tamoyillari tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, undan ibrat ola bilish salohiyatini bugungi kunda har bir shaxs ruhiyati, ekologik ongi hamda dunyoqarashiga singdirish zarur, toki ular global o'zgarishlar sharoitida olam, tabiat, odam haqidagi buyuk ajdodlarimizning g'oyalarini mohiyatan chuqur anglagan holda global hodisaning mentalitetimizga yot ta'sirlariga beriluvchan bo'lmasin, ruhiyatiga chirkin odatlarni jo bo'lishiga yo'l qo'ymas. Eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkuru – udumlari yer va suvni, olov va havoni e'zozlash, bir so'z bilan aytganda tabiatni, uning barcha unsurlarini qadrlash, ularga ehtirom saqlash, ularning har zarrasini ko'z qorachig'idek ehtiyot qilish munosabatida bo'lishi qadrli, e'tiborga molik xususiyatdir. Misol uchun, Alisher Navoiy bobomiz bo'ladimi, Rudakiy, Abay, Mahtumquliy yoki To'qtag'ul kabi ulug' zotlar bo'ladimi, ularning barchasi o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki, butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga da'vat etgani bejiz emas, albatta.

Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepayon mintaqada qanday hamjihat bo'lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo'lsa, bugun ham, ta'biri joiz bo'lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o'zi bizni – butun O'rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do'stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da'vat etmoqda»⁵⁶. Ammo inson va tabiat munosabatlari o'rtasidagi mutanosiblik ildizlari ham aynan qadim davrlardan boshlangan. Chunki ko'p yillar davomida kishilarimizning ongu-shuuriga singdirilgan tabiat haqidagi noto'g'ri tasavvurlar, jumladan, “texnika tabiat kamchiliklarini to'ldirish uchun yaratilgan” degan noilmiy g'oyalar ta'siri hali butkul

⁵⁵ Ibrohimov A. O'zbek mahallasi. “Ma'naviyat”, 2007, B-28

⁵⁶ I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma'naviyat”, 2008 yil, 10-bet.



bartaraf etilmagan bir sharoitda, global ta'sirlarni salbiy ko'rinishlari ularning ruhiyatiga tez singib amaliy faoliyatida odat tusiga aylanishi mumkin.

Buyuk shoir Alisher Navoiy yozganidek:

Tabiatga har neki odat bo'lur

Chu eskirdi odat tabiat bo'lur⁵⁷.

Bundan tashqari qadriyatlar hamda marosimlar mohiyatiga noxolis yondashuv tabiat hodisalari bilan bog'liq marosimlar tarixiy jihatdan uzoq o'tmishga borib taqalishi va unga doir afsona va rivoyatlardagi voqeliklarni turfa xilligi bilan bog'liq. Rus qadimshunosi P.I. Boriskovskiy "Insoniyatning eng qadimgi o'tmishi" kitobida marosimlar 400 ming yil ilgari paydo bo'lgan⁵⁸, deb yozadi. G'arb olimlaridan J.Klark esa marosimlar yoshini neandertal va rodeziyalik odam bilan bog'laydi va 200-150 ming yilga tenglashtiradi⁵⁹.

Ilk marosimchilik 400 ming yoki 200 ming yil nari paydo bo'lgan, degan masala ustida bahs yuritish niyatimiz yo'q. Biz uchun eng muhimi - inson o'z biologik hayvoniy tabiatidan asl insoniy tabiatiga o'tish jarayonida ma'naviylik unsurlarini takomillashtira va o'zlashtira boshlagani va oqibatda yangi tosh asriga kelib nisbatan muvozanatga erishgan murakkab tizimga ega ma'naviyatni yaratganidir. Dadil aytish mumkinki, neandertal odamlarda diniy-ma'naviy hayot unsurlari faqat dafn marosimlari bilangina cheklangan emas. Ular xattoki falokiyot hodisalariga, yulduzlar turkumlariga, alohida yulduzlarga nom berganlar⁶⁰. Fikrimizning isboti uchun shunday misol keltiramiz: o'zbeklar yetti og'ayni, yetti qaroqchi deb nomlaydigan yulduzlar turkumi bor. (Ovropaning ko'p xalqlarida, ularni Katta ona ayiq, Kichik ayiq deb atashadi). Ptolemeyning "Almajiyetiy" asari tufayli islom munajjimlari ham ko'pincha "Katta ayiq" va "Kichik ayiq" nomini qo'llaydi. Jahonning ayrim xalqlari ham ularga nisbatan "ayiq" nomini ishlatadilar. Agar e'tibor bersak, koinot va zamin bilan bog'liq tabiat unsurlariga hayvonlar nomini berilishida ham o'ziga xos majoziy ma'no bor. Tarixiy manbalarga qaraganda, qadimgi odamlar ayrim hayvonlarni o'zi bilan urug'dosh deb bilganlar va shu hayvon uning uchun

⁵⁷ Navoiy A. Hikmatlar. T.: Adabiyot va san'at nashriyoti. -1968. –B. 62.

⁵⁸ Qarang: Борисовский П.И. Древнейшее прошлое человечество. 2-изд. Москва, 1980, С-71

⁵⁹ Дж. Кларк Доисторическая Африка. – М., 1977, С-89

⁶⁰ Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. Toshkent, Ma'naviyat, 2009, B-59



muqaddas sanalgan. Qush otishga, ovchilikka ustasi farang qozoq merganlari esa itni “etti xazinaning boshi”-deyishgan. Ulug‘ mutafakkirlar it timsolida tabiatan shakllangan insondagi ijobiy, salbiy hislatlarga baho berganlar. Hazrat Alisher Navoiyni/ng “Layli va Majnun”ida o‘z qabilasidan mosuvo bo‘lgan Qays maxbubasining iti bilan do‘stlashadi. U to‘rt oyoqli bu jonivorga ishora qilib deydi: “Bul it ermas. Itliq menda”. Ya’ni ayb itda emas, balki itga itliq qilgan insonda. Boshqacha aytganda, it, it emas, itga itlik qilgan inson it. Boshqa bir o‘rinda yana bir ibratli hikoyat keltiriladi. Hazrat Bahovuddin Naqshband ko‘chadan o‘tib borayotgan itning ortidan yugurib borib uni izlarini o‘padi. Bu bilan demoqchiki “yo Alloh, qaniydi senga vafodorligim mana shu itning insonga bo‘lgan sadoqaticha bo‘lsaydi”⁶¹.

Tabiatdagi mavjudotlarni alqash, ulug‘lash bilan bog‘liq an‘analarni ham inson fe‘l-atvoriga, xulq-madaniyatiga ta’sir etuvchi an‘ana va marosimlarni ham barqaror urf-odat va qadriyatlar deb ham atash mumkin. Biroq an‘ana, odat va marosimlar garchi tabiat bilan bog‘liq dunyoqarashlar asosida shakllangan bo‘lsada, davr va tashqi ta’sir natijasida o‘zgarib borgan. Hozirgi davrda an‘analarga o‘tkazilayotgan tashqi ta’sirlar globallashuv shaklida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv jarayoni keltiradigan qulaylik va imkoniyatlardan ko‘proq foydalanish uchun uni chuqur o‘rganish, foydali va zararli jihatlarini atroflicha tahlil qilish zarur. Faqat shundagina u keltirishi mumkin bo‘lgan foydadan ko‘proq manfaatdor bo‘lib, uning zararli tomonlarini chetlab o‘tish imkoniyati tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov A. O‘zbek mahallasi. “Ma’naviyat”, 2007, B-28
2. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil, 10-bet.
3. Navoiy A. Hikmatlar. T.: Adabiyot va san’at nashriyoti. -1968. –B. 62.
4. Борисовский П.И. Древнейшее прошлое человечество. 2-изд. Москва, 1980, С-71
5. Дж. Кларк Доисторическая Африка. – М., 1977, С-89

⁶¹ Qarang. Gaybullox As-Salam Saydi Umr. Tolibnoma. (Seni o‘ylayman bolam) T., Sharq nashriyoti, 1997, B-56-57



6. Mamasaliev M. M. Philosophical and Moral Aspects of Amir Temur's Foreign Policy //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 35. – С. 210-215.

7. Мамасалиев М. АМИР ТЕМУРНИНГ ТАШҚИ СИЁСАТДАГИ ФАЛСАФИЙ-АХЛОҚИЙ ЖИҲАТЛАР //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 170-175.

8. Чориев, С.А., Рустамов, Р.Р. ДУНЁ ТАРҒИБОТ СИСТЕМАСИ ЭВОЛЮЦИЯСИ // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dunyo-tar-ibot-sistemasi-evolyutsiyasi> (дата обращения: 22.01.2024).

9. Рустамов Р. Р., Тураева С. Х. Виды пропаганды, ее цели и задачи //Вестник науки. – 2020. – Т. 5. – №. 11. – С. 58-62.

10. Рўзибоев, Дилшод Аъзам Ўғли ХХ АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ // ORIENSS. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hh-asrning-birinchi-yarmigacha-b-lgan-davrda-zbekistonda-chorvachilikning-a-voli> (дата обращения: 09.12.2022).

11. Ruziboev Dilshod A'Zam Ugli TOURISM POWER OF UZBEKISTAN // ORIENSS. 2021. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tourism-power-of-uzbekistan> (дата обращения: 09.12.2022).

12. Norqulovich J. B. Globallashuv Davrida Migratsion Inqiroz //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 41. – С. 107-109.

13. Бўриев И.И. ЎРТА ОСИЁДА СЎНГИ УЙҒОНИШ ДАВРИ ВА ҒАРБ РЕНЕССАНСИ // Вестник науки. 2020. №11 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rta-osiyoda-s-ngi-uy-onish-davri-va-arb-renessansi> (дата обращения: 24.01.2024).